

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 132 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING YASHIL IQTISODIYOTDAGI O'RNI

Eshev Furqat A'zamovich

Fan va Texnologiyalar universiteti,
"Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

Ibragimova Feruza Axtamovna

Fan va Texnologiyalar universiteti,
"Iqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi

Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi

Fan va Texnologiyalar universiteti, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik global muammolar yechimi sifatida qaralayotgan "yashil iqtisodiyot"ni O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari tomonidan moliyalashtirish va uni rivojlantirish yo'nalishlari o'rganib chiqilgan. Tijorat banklari yashil iqtisodiyotni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi asosiy institutlar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ekologik muammolarni kamaytirish maqsadida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida olib borilayotgan ishlar tahlil qilingan, shuningdek, tegishli taklif va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, ekologik muammolar, tabiiy resurslar, tijorat banklari, global iqlim, qayta tiklanadigan energiya, suv resurslari.

Abstract: This article examines the financing and development directions of the green economy by commercial banks in the Republic of Uzbekistan, which is currently considered a solution to global economic, social, and environmental challenges. Commercial banks serve as key financial institutions supporting the green economy. The article analyzes the reforms being implemented in Uzbekistan's economy to facilitate the transition to a green economy and reduce environmental issues. Relevant proposals and conclusions are also presented.

Key words: green economy, environmental problems, natural resources, commercial banks, global climate, renewable energy, water resources.

Аннотация: В данной статье рассмотрены направления финансирования и развития «зелёной экономики» коммерческими банками Республики Узбекистан, которая в настоящее время рассматривается как одно из решений глобальных экономических, социальных и экологических проблем. Коммерческие банки выступают важными финансовыми институтами, поддерживающими зелёную экономику. В статье проанализированы реформы, реализуемые в экономике страны, направленные на переход к зелёной экономике и снижение экологических рисков, а также представлены соответствующие предложения и выводы.

Ключевые слова: зелёная экономика, экологические проблемы, природные ресурсы, коммерческие банки, глобальный климат, возобновляемая энергия, водные ресурсы.

KIRISH

Yashil iqtisodiyot – bu iqtisodiy o'sishni atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uyg'unlashtirishga asoslangan rivojlanish modelidir. Bugungi kunda global isish, iqlim o'zgarishlari va tabiiy resurslarning kamayishi kabi muammolar dunyo miqyosida yashil iqtisodiyotga o'tishni zaruratga aylantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global tendensiyalarga mos ravishda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini ishlab chiqmoqda. 2019-yilda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash, energiya samaradorligini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirishga yo'naltirilgan.

Tijorat banklari esa bu jarayonda muhim moliyaviy institutlar sifatida faol ishtirok etmoqda. Ularning ekologik loyihalarga ajratayotgan kreditlari va obligatsiyalari orqali moliyalashtirish imkoniyatlari mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shmoqda.



Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi moliya bozorining barqarorligini talab etadi. Bank tizimi esa investitsiyalarni yo'naltirishda, xususan, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik toza transport va chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlarda moliyalashtirishni ta'minlaydigan asosiy vositachilardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashda muhim iqtisodiy yondashuv sifatida shakllanmoqda. Jozef Shtiglits yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlanishning moliyaviy asosi deb baholab, bu yo'nalishda hukumat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. U yashil infratuzilmani rivojlantirishda moliyaviy muassasalarning, xususan, banklarning roli alohida o'ringa ega ekanini belgilab bergan.

Xalqaro amaliyotda yashil moliya vositalari bozorini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Baran D. va Ozturk I. yashil obligatsiyalar bozori va tijorat banklarining ekologik loyihalarga kredit ajratish mexanizmlarini tahlil qilib, ularning investitsiya oqimlarini ekologik yo'nalishga yo'naltirishdagi ahamiyatini asoslab bergan. Ularning fikricha, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklar resurs taqsimoti va xavflarni kamaytiruvchi institut sifatida faoliyat yuritadi.

G20 mamlakatlari tajribasini o'rgangan Bogacheva O. va Smorodinov O. yashil moliyalashtirishda duch kelinayotgan institutsional va qonunchilikdagi to'siqlarni ko'rsatib, ularni bartaraf etish uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan integratsiyalashgan strategiyalar ishlab chiqishni taklif etadi.

Rossiyada yashil iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollarini tahlil qilgan Vukovich N.A. bank sektorining innovatsion moliyaviy instrumentlar orqali ekologik loyihalarni rag'batlantirishdagi rolga e'tibor qaratadi. U davlat siyosatining moliyaviy sektor bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi.

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda strategik institut sifatida qaralayapti. Ularning faoliyati kredit resurslarini ekologik barqaror yo'nalishlarga yo'naltirish, investitsiyalarni diversifikatsiya qilish va yashil transformatsiyani tezlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda asosiy ma'lumotlar O'zbekiston tijorat banklarining rasmiy hisobotlari, Markaziy bank statistikasi hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar nashrlaridan olindi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, dinamik o'sish ko'rsatkichlari va strukturaviy tahlil usullari orqali umumlashtirildi hamda grafik va jadval shaklida tizimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo miqyosida ekologik barqaror moliyalashtirish bozori izchil rivojlanmoqda. 2023-yilda global yashil obligatsiyalar bozorining hajmi taxminan 550 milliard AQSh dollariga yetgan. O'zbekistonda esa ushbu bozor hali rivojlanish bosqichida bo'lib, 2024-yilda yashil obligatsiyalar hajmi 190 million dollar atrofida baholangan.

Tijorat banklari ekologik loyihalar uchun maxsus kredit liniyalarini joriy etmoqda. Masalan, 2024-yilda O'zbekiston tijorat banklari tomonidan ajratilgan yashil kreditlar hajmi 1 trillion so'mdan oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 35 % ga oshgan.

2019-yilda O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" doirasida mamlakatda energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Masalan, 2022-yil oxiriga kelib, O'zbekistonda quyosh energiyasi sektori 100 megavatt quvvatga ega bo'lib, mamlakatning umumiy energiya balansida qayta tiklanuvchi energiyaning ulushi 12 % ga yetgan. Ushbu sohani moliyalashtirishda tijorat banklari faol ishtirok etmoqda.

O'zbekiston bank tizimida yashil moliyalashtirish bo'yicha asosiy o'yinchilar sifatida "Ipoteka bank", "Asaka bank" va "Agrobank"ni ko'rsatish mumkin. Ushbu banklar tomonidan quyosh panellari, issiqlik izolyatsiyasi tizimlari va bioenergetika qurilmalarini joriy etish uchun maxsus kredit liniyalari ochilgan.

2023-yilda banklarning yashil kredit portfeli umumiy kredit portfelining taxminan 5 % ini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich global o'rtacha darajadan past bo'lishiga qaramay, yil sayin oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishga oid ayrim statistik ko'rsatkichlar quyidagicha:

2023-yilda tijorat banklari tomonidan ajratilgan yashil kreditlar hajmi 1,2 trillion so'mga yetdi.

Shu yili "Ipoteka bank" va "Asaka bank" tomonidan quyosh energiyasi loyihalariga ajratilgan kreditlarning umumiy qiymati 450 milliard so'mdan oshdi.

2022-yilda qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish hajmi 600 megavattni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 35 % ga oshdi.



2023-yilda O'zbekistonning yashil obligatsiyalar bozoridagi ulushi taxminan 0,03 % ni tashkil etdi va ushbu bozor rivojlanishda davom etmoqda.

"Sanoat Qurilish banki" 2023-yilda birinchi korporativ yashil obligatsiyasini chiqarib, yashil moliyalashtirish bozorida yetakchi o'rinni egalladi.

"Ipak yo'li banki" 2024-yilda Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD) tomonidan 45 million AQSh dollari miqdorida ekologik barqaror moliyalashtirishni amalga oshirdi.

Global miqyosda yashil moliyalashtirish bozorining yillik o'sish sur'ati 20–25 % ni tashkil qilmoqda. O'zbekiston esa ushbu yo'nalishda keyingi 5 yil ichida o'rtacha 30 % lik o'sishni maqsad qilgan.

Muammolar va imkoniyatlar

Hozirgi kunda O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi faoliyatini rivojlantirishda quyidagi asosiy muammolar mavjud:

Moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi. Ko'plab bank xodimlari va mijozlar yashil moliya mahsulotlarini yetarlicha tushunmaydi, bu esa moliyalashtirishning samaradorligini pasaytiradi.

Huquqiy bazaning yetarlicha rivojlanmaganligi. Yashil obligatsiyalar, kredit kafolatlari va boshqa moliyaviy instrumentlarga oid qonunchilik hali to'liq shakllanmagan.

Xavf va kafolat mexanizmlarining cheklanganligi. Ekologik loyihalar bilan bog'liq moliyaviy xavflarni kamaytirish uchun sug'urta va kafolat tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Ma'lumotlar va statistik bazaning yetishmasligi. Yashil moliyalashtirish bo'yicha tizimli va ochiq ma'lumotlar bazasi mavjud emas.

Shunga qaramay, quyidagi imkoniyatlar mavjud:

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik. EBRD, Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB) va boshqa moliyaviy institutlar bilan sheriklik imkoniyatlari kengaymoqda.

Davlat dasturlari. "Yashil iqtisodiyotga o'tish" strategiyasi asosida ishlab chiqilgan dasturlar tijorat banklarini rag'batlantirishga yo'naltirilgan.

Sug'urta va kafolat mexanizmlarini joriy etish. Yashil kreditlar uchun riskni kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish imkoniyati mavjud.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish. Bank xodimlari va mijozlar uchun maxsus treninglar tashkil etish orqali ekologik moliyalashtirish bo'yicha xabardorlikni oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston tijorat banklari mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida markaziy rol o'ynamoqda. Ularning moliyaviy vositalari orqali ekologik loyihalarga yo'naltirilayotgan mablag'lar atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, banklar tomonidan yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Biroq, ushbu yo'nalishdagi imkoniyatlar hanuz to'liq ishga tushirilmagan. Moliyaviy savodxonlikni oshirish, qonunchilikni takomillashtirish va xavflarni kamaytiruvchi mexanizmlarni joriy etish orqali O'zbekiston bank tizimi yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashda yanada samarali ishlashi mumkin.

Kelajakda mamlakat banklari xalqaro tajribalarga asoslangan yondashuvlarni joriy etgan holda, innovatsion moliyaviy instrumentlardan faol foydalanishga e'tibor qaratishi lozim. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyotining ekologik barqarorligini yanada mustahkamlaydi.

Takliflar:

Ekologik barqaror moliyalashtirish bo'yicha maxsus davlat dasturlarini kengaytirish lozim. Banklarni ekologik loyihalarga kredit ajratishga rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari va subsidiya mexanizmlarini joriy etish zarur.

Yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish va investorlar uchun rag'batlantiruvchi imtiyozlarni belgilash maqsadga muvofiq.

Banklar va mijozlar uchun moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan tizimli dasturlarni tashkil qilish. Bu orqali yashil moliyalashtirish mahsulotlarining ommalashuviga erishiladi.

Ekologik loyihalar bilan bog'liq moliyaviy xavflarni kamaytirish maqsadida sug'urta va kafolat mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish faoliyatini monitoring qilish tizimini yaratish hamda tegishli statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot
2. The 5 Principles of Green Economy. <https://www.greenecomomycoalition.org/news-and-resources/the-5-principles-of-green-economy>



3. Bogacheva O., Smorodinov O. Challenges to Green Finance in G20 Countries. *Mirovaya Ekonomika i Mejdunarodnye Otnosheniya*, 2017, 61(10): 16–24.
4. Vukovich N.A. “Zelyonaya” ekonomika: perspektivy razvitiya v Rossii. UDK 332.1. [https://elar.urfu.ru/bitstream/](https://elar.urfu.ru/bitstream/https://www.spot.uz)
5. <https://www.spot.uz>
6. <https://www.eco-business.com/opinion/challenges-and-prospects-green-economy/>
7. Greening the Economy. https://t.me/green_econ/652
8. Sustainable Investing. <https://www.lombardodier.com/home.html>
9. The Greenest Countries in the World. <https://www.theecoexperts.co.uk/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>